

SAMARQAND DAVLAT  
TIBBIYOT INSTITUTI  
SAMDTI AKADEMİK LITSEYI  
ANIQ FANLAR KAFEDRASI  
UMUMTA'LIM GURUHLAR UCHUN

---

Sodiqov N.O., Yarmahammadov U.Q.  
Burxonov B.N.

---

## FIZIKA FANIDAN LABORATORIYA ISHLARI TO'PLAMI



USLUBIY QO'LLANMA

**SAMARQAND 2022**

**SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**SAMDTI AKADEMIK LITSEYI  
ANIQ FANLAR KAFEDRASI UMUMTA'LIM GURUHLAR  
UCHUN**

**Sodiqov N.O., Yarmahammakov U.Q., Buixonov B.N.**



**FIZIKA FANIDAN LABORATORIYA ISHLARI  
TO'PLAMI**

**(Uslugiy qo'llanma)**

Sam DTI  
axborot-resurs markazi  
9326 бп

**SAMARQAND\_2022**

## KIRISH

Respublikamizda iqtisodiy tizimmi isloh etish sharoitida, ta'lrim tizimida ham o'zgarishlar jarayoni amalga oshirilmoqda. Ta'lrim jarayonini tubdan isloh etish uchun yangi mazmundagi va zamon talabiga javob beradigan o'quv adabiyotlari, uslubiy qo'llanmalar va ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish talab qiladi. Shu maqsadda yangi pedagogik texnologiya (YaPT)lar joriy qilinmoqda.

Fizika fanini o'qitishda ayrim mavzularni o'quvchilarga osonroq tushunishlari uchun yangi pedagogik texnologiyani zamонавиу didaktik usullaridan keng foydalanish zarur.

Fizika darslarimi faollashtirish uchun o'rta maktab kurslaridan boshlab, o'quvchilarni fanga qiziqтирish uchun fan bo'yicha tadbirlar, musobaqlar, tanlovlardan o'qituvchi tamonidan tashkil etilishi lozim. Ushbu qo'llanmadan o'rta maktabda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'qituvchi va o'quvchilar darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanishlari mumkin. Qo'llanmada chuqurlashtirilgan guruhlarga o'tiladigan laboratoriya ishlari va jadvallari keltirilgan.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga fizika fanini o'qitishda laboratoriya ishi muhim ahamiyatga ega. Chunki ularga o'tilayotgan mavzular ma'ruzasi, masalalarni va formulalari haqidagi ko'nikmalari, tasavvurlari laboratoriya ishlarini bajarishdan hosil bo'ladi.

Ushbu laboratoriya ishlarini bajarishda o'quvchi bir necha o'tilgan mavzularni takrorlash imkonini beradi. Ya'ni chuqurlashtirilib o'tiladigan guruhlardagi mavzularni kattaliklarni o'lhash, uning birliklari ustida amallar bajarish va issiqlik miqdorini, temperaturasini o'lhash, asboblar bilan ishlashni hamda ishni bajarish ketma-ketligi, uslubi va kattaliklarni hisoblashni o'rGANADILAR.

Ushbu amaliy laboratoriya ishlari fizika fanidan Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv dasturiga mos ravishda aniq fanlar yo'nalishidagi chuqurlashgan guruhlari uchun tajriba usulida tanlangan. Laboratoriya ishini bajarish tartibi, asosan "EL XOLDING" (O'zbekiston) firmasi ishlab chiqayotgan asbob-uskunalariga mo'ljallangan.

### Laboratoriya ishlarini bajarishning umumiyo qoidalari.

1. Ish bajarishda guruh talabalari 3 kishidan iborat gruhlarga bo'linadi. Guruhlar reja bo'yicha ko'zda tutilgan hamma ishni ma'lum grafik asosida bajaradilar.

2. Har bir talaba laboratoriyyada ish bajarish dasturi va texnika havfsizligi bilan tanishgan bo'lishi shart.

Tuzuvchilar:

**Sodiqov Nayim Ochilovich**  
Fizika matematika fanlar nomzodi  
dotsent SamDTI "Tibbiy va biologik fizika", kafedrasi mudiri.

**Yarmahhammadov Usmon**  
Qulmuhammatovich  
SamDTI akademik litseyi fizika fani  
Katta o'qituvchisi.

**Burxonov Baxtiyor Nabiyevich**  
Fizika matematika fanlar nomzodi  
SamDTI "Tibbiy va biologik fizika"  
kafedrasi, Katta o'qituvchisi.

**Malikov Murod Rasulovich**  
Fizika matematika fanlar nomzodi  
SamDTI "Informatika va informatsion texnologiyalar" kafedrasi mudiri.

**O'sarov Azamat Asatullayevich**  
Fizika matematika fanlar nomzodi  
SamDTI "Tibbiy va biologik fizika"  
kafedrasi assistenti.

Taqrizchi:

Ushbu uslubiy qo'llanma akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quv dasturi asosida tuzildi. Uslubiy qo'llanma fizika fanini umum ta'lrim guruhlarda fizika fanidan laboratoriya ishlarini bajarishda hamda fizika fanini chuqurlashtirib o'rganayotgan o'qituvchi va o'quvchilar uchun foydalanishi mumkin bo'lgan uslubiy qo'llanma hisoblanadi.

Uslubiy qo'llanma 6-oktyabr 2021-yil Ilmiy kengash yig'ilishda tasdiqlandi  
№ 2 bayonnomma asosida chop etishga ruxsat berildi.

Ilmiy kengash kotibi, dotsent: M.T. Nasredinova



3. Talabalar darsga laboratoriya ishni bajarishga tegishli nazariy materiallarni tayyorlagan holda kelishi kerak. Ular o'quv qo'llanmalari yordamida ishning maqsadi va mazmuni bilan tanishadilar.

4. Talabalarning laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorligi o'qituvchi tomonidan tekshirib ko'rildi. Tayyor bo'lмаган talabalar ishga qo'yilmaidilar.

5. Ish jarayonida ishlataladigan asboblar va qurilma sxemasi bilan tanishib chiqadilar.

6. Ishni boshlashda albatta o'qituvchidan ruhsat olinadi. Ushbu qoidani buzgan talabalarga ma'muriy jazo qo'llaniladi, asbobni ishdan chiqqarganlarga esa moddiy jazo qo'llaniladi.

7. Asbob ishlatayotgan vaqtida uni qarovsiz qoldirmaslik kerak.

8. Tajribani tugatgandan keyin natijaning to'q'riligini o'qituvchiga yoki laborantga tekshirish lozim. Agar natija noto'qri bo'lsa tajriba takrorlanadi.

9. Ish joyi tartibga keltirilgan bo'lishi kerak.

### O'lhash xatolarini xisoblash

Laboratoriya ishlari ma'lum fizik kattaliklarni o'lhash bilan bog'lik. O'lhashlar fizik kattalikning haqiqiy qiymatini bermasligi mumkin. O'lhashda kelib chiqadigan xatolar O'lhash uslubi va asboblarining mukammal emasligidan va tajriba sharoitlaridan kelib chiqadi. Shuning uchun har qanday O'lhash natijasida fizik kattalikning taqribi qiyatlari topiladi. Bu natijalar asosida topilgan urta arifmetik qiymat fizik kattalikning haqiqiy qiymatiga eng yatsin buladi.

1. Ixtiyoriy fizik kattalikni O'lhash bir necha marta (kamida uch marta) takrorlanadi. Bunda  $x_1, x_2, x_3, \dots, x_n$  — lar ayrim O'lhash natijalari va n—o'lhashlar soni desak, ulchanayotgan kattalikning urta arifmetik qiyomi quyidagicha aniqlanadi:

$$x_{o'r} = \frac{x_1 + x_2 + x_3 + \dots + x_n}{n}$$

2. Xar bir O'lhashning absolyut xatosi topiladi.

$$\Delta x_1 = |x_{o'r} - x_1| \quad \Delta x_2 = |x_{o'r} - x_2| \quad \Delta x_3 = |x_{o'r} - x_3|$$

$$\dots$$

$$\Delta x_n = |x_{o'r} - x_n|$$

3. O'lhashning o'rtcha absalut xatosini aniqlash.

$$x_{o'r} = \frac{\Delta x_1 + \Delta x_2 + \Delta x_3 + \dots + \Delta x_n}{n}$$

4. O'lhashning nisbiy xatosini aniqlash.

$$\eta = \frac{\Delta x_{o'r}}{x_{o'r}} \cdot 100\%$$

## LABORATORIYA ISHI №1

### TEKIS TEZLANUVCHAN HARAKATNI O'RGANISH

- I. Ishining maqsadi:** Tekis tezlanuvchan harakatni o'rganish.
- II. Kerakli asbob va uskunalar:** 1. 50-10 sm uzunlikdagi yo'lak
- 2. Uzunlikni o'lhash asbobi (lineyka)
- 3. Vaqtini o'lhash asbobi (sekundomer)
- 4. Qog'oz, ruchka

### III. Nazariy qism

Agar jism teng vaqtlar oralig'ida teng masofalarni o'tmasa bunday harakat notejis harakat deyiladi. Notejis harakat tezlanuvchan va sekinlanuvchan bo'lishi mumkin.

Agar harakati tekshirayotgan jism teng vaqtlar oralig'ida o'tgan masofalari bir xil miqdorga oshib borsa bunday harakat tekis tezlanuvchan harakat deyiladi.

Agar harakati tekshirayotgan jism teng vaqtlar oralig'ida o'tgan masofalari bir xil miqdorga kamayib borsa bunday harakat tekis sekinlanuvchan harakat deyiladi.

Notejis harakar o'rtacha tezlik tushunchasidan tashqari tezlanish tushunchasi bilan ham xarakterlanadi. Tezlanish quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$\alpha = \frac{\vartheta - \vartheta_0}{t} \quad (1)$$

Jismni tezlanishi deb uning tezligining vaqt birligidagi o'zgarishiga aytildi.

Tezlanish formulasida  $\vartheta$  — keyingi tezlik,

$\vartheta_0$  — boshlang'ich tezlik

t — tezlikni o'zgarish vaqt.

(1)-formuladan foydalangan holda jismni notejis harakatdagi tezlanishi va keyingi tezligi hamda tezlikni o'zgarish vaqtini ma'lum bo'lsa

$$\vartheta_0 = \vartheta - at \quad (2)$$

Formulaga ko'ra boshlang'ich tezlikni aniqlash mumkin.

$V_0$ , a, t — lar aniq bo'lsa keyingi tezlik V- ni hisoblab topish mumkin bo'ladi.

$$\vartheta = \vartheta_0 + at \quad (3)$$

Shu bilan birga bizga ma'lumki tekis tezlanuvchan yoki sekinlanuvchan harakatdagi jismni t- vaqtida  $\vartheta_0$ - boshlang'ich tezlik bilan

hamda a-tezlanish bilan o'tgan masofasi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$S = g_0 t \pm \frac{at^2}{2} \quad (4)$$


(4)- formula boshlang'ich tezlik  $g_0 = 0$  bo'lgan holat uchun quyidagi ko'rinishni oladi.

$$S = \frac{at^2}{2} \quad (5)$$

(5)- formuladan foydalangan holda tekshirilayotgan jismni t- vaqtida o'tdigan yo'li S-ni o'lhash yo'li bilan jismni harakat tezlanishini quyidagi formula

$$a = \frac{2S}{t^2} \quad (6)$$

yordamida hisoblab topish mumkin bo'ladi.



1 - rasm.

#### IV. Ishni bajarish tartibi

1. Laboratoriya universal ta'minlash manbai 42 V o'zgaruvchan tok tarmog'iga ulanadi.

2. Lahza o'lchagich laboratoriya universal ta'minlash manbaiga ulanadi va ishga tushiriladi. Lahza o'lchagichning hisobdan chiqarish tugmasini bosib, uning ko'rsatish tablosida 0 raqamining paydo bo'lganligi qayd etiladi.

3. Novning yuqori uchidan sharcha qo'yib yuboriladigan joy tanlanadi. Novning quiqi qismiga silindrcha o'rnatiladi.

4. Sharcha tanlangan joydan qo'yib yuboriladi va shu zahoti lahza o'lchagich ishga tushiriladi.

5. Sharcha nov oxiridagi silindrga etib kelgach, lahza o'lchagichning to'xtatish tugmasi bosiladi

6. Lahza o'lchagichning ko'rsatishi ( $t$ ) qayd etiladi.

7. Sharchaning bosib o'tgan yo'li ( $S$ ) o'lchov chizg'ichi yordamida o'lchab olinadi.

8. Lahza o'lchagichning hisobdan chiqarish tugmasini bosib, uning ko'rsatish tablosida 0 raqamining paydo bo'lganligi qayd etiladi.

9. Tajriba bir necha bor takrorlanadi.

10. Olingan natijalar asosida (6) formulaga ko'ra tekis tezlanuvchan harakat tezlanishi hisoblanadi.

11. Tajriba natijalari absolyut xatolik hisobga olingan holda, quyidagi jadvalga yoziladi:

Nº	S (m)	t (s)	A (m/s <sup>2</sup> )	a <sub>0,rt</sub> (m/s <sup>2</sup> )	Δa (m/s <sup>2</sup> )	Δa <sub>0,rt</sub> (m/s <sup>2</sup> )	N%
1							
2							
3							

#### Nazorat uchun savollar

1. Tekis tezlanuvchan harakat tenglamasi

2. Tekis sekinlanuvchan harakat tenglamasi

3. To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakatda tezlik moduli va yo'nalishi

4. To'g'ri chiziqli tekis sekinlanuvchan harakatda tezlik moduli va yo'nalishi

5. To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakatda tezlanish moduli va yo'nalishi

6. To'g'ri chiziqli tekis sekinlanuvchan harakatda tezlanish moduli va yo'nalishi

7. To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakatda tezlik moduli va yo'nalishi

8. To'g'ri chiziqli tekis sekinlanuvchan harakatda tezlik moduli va yo'nalishi

9. To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakatda tezlanish moduli va yo'nalishi

10. To'g'ri chiziqli tekis sekinlanuvchan harakatda tezlik moduli va yo'nalishi

11. To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakatda tezlik moduli va yo'nalishi

12. To'g'ri chiziqli tekis sekinlanuvchan harakatda tezlik moduli va yo'nalishi

13. To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakatda tezlik moduli va yo'nalishi

14. To'g'ri chiziqli tekis sekinlanuvchan harakatda tezlik moduli va yo'nalishi

## LABORATORIYA ISHI №2

### MATEMATIK MAYATNIK YORDAMIDA ERKIN TUSHISH TEZLANISHNI ANIQLASH.

**I. Ishining maqsadi:** Matematik mayatnik ipi uzunliginining har xil qiyomatida, mayatnikning tebranish davrini aniqlab, erkin tushish tezlanishi


g - ning son qiyomatini o'lchash.

#### II. Kerakli asbob –uskunalar:

1. Shtativ
2. Ingichka cho'zilmas o'g'irliksiz 1 metrlar chamasi uzunlikdagi ip
3. Maxsus sharik
4. O'lchov lineykasi.
5. Sekundomer

#### III. Nazariy qism

Matematik mayatnik deb, cho'zilmas va vaznsiz ipga osilgan moddiy nuqtaga aytildi (rasm 1).



Matematik mayatnik davri  $T$  deb moddiy nuqtaning bir to'la tebranishiga ketgan vaqtga aytildi. Masalan, C nuqtadan B nuqtaga borib, yana C nuqtaga qaytib kelgungacha ketgan vaqt. Agar matematik mayatnik ipining uzunligini  $L$  deb olsak, uning tebranish davri *Tomson* formulasi yordamida aniqlanadi:

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{L}{g}} \quad a(1)$$

2-rasm

Bu yerda,  $g$  – erkin tushish tezlanishi. Tebranish davrini  $T=t/N$  ekanligini inobatga olgan xolda (1) ifodaga qoygan xolda erkin tushish tezlanishini topsak

$$g = \frac{4\pi^2 N^2}{t^2} \quad (2)$$

Laboratoriya ishini bajarishda matematik mayatnik ipining uzunligi **20 - 50 sm** chegarada o'zgartirilishi ko'zda tutilgan.

#### IV. Ishning bajarilish tartibi

1. Shtativga uzunligi o'lchanan va sharik bog'langan ip bog'lanadi
2. Matematik mayatnik ipini uzunligi L-o'lchanib, qog'ozga yozib qo'yiladi.
3. Sekundomer tayyor holga keltiriladi va mayatnik sharchasi muvozanat holatidan  $15^\circ$  chamasidagi burchakka og'diriladi.
4. Mayatnik sharchasi qo'yib yuboriladi va sekundomer ishga tushiriladi.
5. Mayatnikni to'liq tebranishlarini soni N- ga yrtganda sekundomer to'xtatiladi.
6. Tebranishlar soni N va tebranish vaqtini t- yozib olinadi
7.  $T = \frac{t}{N}$  formulaga ko'ra mayatnikni tebranish davri aniqlanadi.
8. (2) –formulaga topilgan T-ni qiyomatini qo'yib erkin tushish tezlanishi g- hisoblanadi.
9. Matematik mayatnik ipini uzunligi L- o'zgartirilib tajribani bajarishdagi 3-8- punktdagi amallar takror bajariladi.
10. O'lchanan va hisob natijalari hamda yo'l qo'yilgan xatoliklarni qiyatlari quyidagi jadvalga yoziladi.
11. O'lhashlarni bajarishda L uchun 20, 30, 40 sm uzunliklar, tebranishlar soni N uchun 10, 15, 20 ta olinishi mumkin.

Nº	$l(m)$	$t(s)$	$N$	$g(m/s^2)$	$g_0$	$\Delta g$	$\Delta g_0$	$N\%$
1								
2								
3								

#### Nazorat uchun savollar:

1. Mexanik harakatni qanday turlarini bilasiz?
2. Notekis harakat tezlanishi qanday formula bilan aniqlanadi?
3. Erkin tushish tezlanishining o'lchov birlligi qanday bo'ladi?
4. Tebranish davri va chastotasi haqida gapirib bering.

### LABORATORIYA ISHI №3

#### BOYL-MARIOTT QONUNI O'RGANISH

**I. Ishni maqsadi:** Boyl-mariott qonuni o'rganish.

**II. Kerakli asboblar:** Boyl-mariott qonuni o'rganish maxsus qurilmasi.

#### III. Nazariy qism

Gazning makroskopik holatini uning bosimi  $P$ , hajmi  $V$ , temperaturasi  $T$  ifodalaydi. Bu parametrlar o'rtasidagi bog'lanish berilgan massadagi gaz uchun turli xil olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, bu bog'lanishlarni aniqlovchi munosabatlar ularning nomlari bilan yuritiladi. Shu qonunlar bilan tanishamiz.

**Ideal gazning hajmi bilan bosimi orasidagi bog'lanish. Boyl-Mariott qonuni.** Gazning temperaturasini doimiy bo'lgandagi jarayonga izotermik jarayon deyiladi. Shu jarayonda gazning bosimi bilan hajmi o'rtasidagi bog'lanishni bir-biridan mustaqil ravishda. tekshirib, ingliz olimi R.Boyl (1627-1691) va fransuz olimi E.Mariott (1620-1684) quyidagi qonunni kashf qildilar.

Temperatura o'zgarmas bo'lqanda, berilgan gaz massasining bosimi gazning hajmiga teskari proporsional bo'ladi.

$$pV = \text{const}$$

Bu qonunga Boyl-Mariott qonuni deb ataladi.


Misol uchun biror gaz massasining temperurasasi o'zgarniaa  $T=\text{const}$  bo'lsin.  $R_1$  bosimda gazning hajmi  $V_1$ ,  $P_1$  bosimda gazning hajmi  $V_2$  bo'lsin. U holda

$$\frac{P_1}{P_2} = \frac{V_1}{V_2} \quad (1)$$

$$\text{yoki } P_1 V_1 = P_2 V_2 \quad (2)$$

Gazning dastlabki bosimi atmaosfera bosimi ( $P_1=P_0=10^5 \text{ Pa}$ ) ga  $P_2=P_0+P_b$  ga teng bu yerda ( $P_b$ ) barometrning ko'rsatgichi

Temperatura o'zgarmaganda berilgan gaz massasi hajmining bosimga



ko'paylmasi o'zgarmas kattalikdir. Agar bu bog'lanishni  $P=P(V)$  mashtabida grafik ravishda ifodalasak izotermik ( $T_1=\text{const}$ ) jarayon grafigi quyidagi rasmda keltirilgan.

Agar temperaturani  $T_2$  gacha oshirib, keyin uni doimiy qoldirib  $P$  va  $V$  o'rtasida bog'lanishni aniqlasak  $T_2$  ga tegishli izoterma hosil bo'ladi.

O'tkazilgan tajribalar Boyl-Mariott qonuni past bosimli gazlarda bajarilishi isbotlandi. Juda katta bosimlarda Boyl-Mariott qonunini tadbiq etib bo'lmaydi. Unday hollarda bosim bilan hajm o'rtasidagi bog'lanish ancha murakkablashadi.

Boyl-Mariott qonunidan ko'rindiki, gazning temperaturasini o'zgarmaganda uning bosimi hajmiga teskari proporsional bo'lganligi uchun, gazning bosimi ortishi bilan uning zichligi ham ortadi, ya'ni gazning bosimi zichligiga to'g'ri proporsional.

#### IV. Ishning bajarish tartibi

1. Ish bajarish yo'riqnomasi bilan tanishib chiqing
2. Qurilmani 1,2,3-quloqlarini ochib eng katta xajimga qo'ying
3. Qurilmqning xajmini yozib qo'ying bu xolda bosim ( $P_0=10^5 \text{ Pa}$ ) atmosfera bosimiga teng bo'ladi.
4. Qurilmaning 1 chi va 3ch quloqlarini berkiting
5. Porshenni surib unga mos keladigan xajim va bosimlarni yozib qo'ying, barometrni ko'rsatishiga atmosfera bosimini qo'shing  $P_2=10^5 \text{ Pa} + P_b$
6. Xajmni bo'smga ko'paytmasi  $pV=\text{const}$  o'zgarmas ekanligini tekshiring
7. O'lchash va hisoblashlar kamida uch marta bajariladi va natijalar jadvalga yoziladi.

Nº	V	P	(P · V)	(P · V) <sub>o'r</sub>	Δ(P · V)	Δ(P · V) <sub>o'r</sub>	N %
1							
2							
3							

#### Nazorat uchun savollari.

1. Izotermik jarayon va izoterma
2. Gey-Lyussak qonuni
3. Snarl qonuni
4. Izobarik jarayon va izobara
5. Izoxorik jarayon va izoxora
6. Izotermik jarayonda bosimning zichlikka bog'liqligi
7. Termik koeffitsiyentlar

Sodiqov N.O., Yarmahammadov U.Q., Burxonov B.N.

**LABORATORIYA ISHI №4****GUK QONUNI ASOSIDA PRUJINA BIKIRLIGINI ANIQLASH.**

**I. Kerakli asbob-uskunalar:** 1. Bikirligi aniqlanadigan prujina (10 sm ga yaqin uzunlikka ega bo'lishi kerak)

2. Millimetr aniqligida o'lhash imkoniyatiga ega bo'lgan zunlik olchov asbobi (Lineyka)

3. Shtativ

4. Turli massadagi toshlar

**II. Ishning maqsadi:** Guk qonunini chuqur o'rghanish va turli materillar bikirligini tajriba yo'li bilan aniqlashni o'rghanish.

**III. Nazariy qism.**

Tabiatdagi barcha kuchlar (mexanik kuch, gravitatsion kuch, elektromagnit kuch, yadro kuchlari) orasida elastiklik kuchlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Malumki, elastiklik kuchi Guk qonuni asosida aniqlanadi. Bu qonunga asosan elestiklik kuchi  $F$  prujinaning cho'zilishiga yoki (yoki siqilishiga) proporsionaldir.

$$F = -kx \quad (1)$$

Bu yerda,  $k$  – prujinaning bikirligi va  $x$  – cho'zilish (siqilish) uzunligi.

Prujinaga ta'sir etuvchi tashqi kuch Nyutonning 2-qonuniga binoan

$$F = ma$$

Yoki og'irlik kuchi bo'lishi mumkin

$$F = mg \quad (2)$$


Bu terda  $m$  – jism massasi  $a$  – tezlanish,  $g$  – erkin tushish tezlanishi.

Ushbu laboratoriya ishlari bajarishda tanlangan prujina materialini bikirligini aniqlash uchun (2) va (1) formulalar vositasida quyidagi ishlchi formulani hosil qilamiz.

$$k = mg / \Delta X \quad (3)$$

$$\text{Bu yerda } \Delta X = X_2 - X_1 \quad (4)$$

$X$ - prujinani yuk qo'yilgandagi uzunligi  $X_0$ - prujinaning boshlang'ich uzunligi


**IV. Ishni bajarish tartibi.**

1. Bikirligi aniqlanayotgan purjinaning uzunligi  $l_0$  yozib oling
2. Purjinaga massasi aniq bo'lgan jisimlar osib purjinani keyingi uzunligi  $l$  ni yozib oling
- 3.(4) ifoda yordamida purjinani cho'zilishin aniqlang
- 5.(3) ifoda yordamida purjinaning bikirligini aniqlang
6. Har-xil massali jismlar uchun tajribani uch marta takrorlanadi
7. O'lhashlar va hisoblashlar jadvalga kiritiladi hisoblashlar jadvalga kiritiladi.

Nº	$l_0$ (sm)	$l$ (sm)	$\Delta X$ (sm)	$k$ (N/m)	$k_{0,r}$	$\Delta k$	$\Delta k_{0,r}$	N %
1								
2								
3								

**Nazorat uchun savollari:**

1. Butun olam tortilish qonunini tushuntirib bering.
2. Vazinsizlik hodisasi deb nimaga aytildi?
3. Mexanik harakatni qanday turlarini bilasiz?
4. Erkin tushish tezlanishining o'lchov birlligi qanday bo'ladi?



## LABORATORIYA ISHI №5

## TOK MANBAINING ICHKI QARSHILIGINI ANIQLASH.

**I. Ishning maqsadi:** Tok manbaining ichki qarshiliginini aniqlashni o'rghanish.

**II. Kerakli asboblar:** 1. Ichki qarshiligi aniqlanishi kerek bo'lgan tok manbai.

2. Ampermetr
3. Voltmetr
4. Reostat


## III. Nazariy qism

Turli xil tok manbalari elektr zanjiriga ulanganda bu manbalarni o'zlarini qarshiliklari ya'ni manbani ichki qarshiligi bo'lishini hisobga olish zarur bo'ladi. Har bir manba ichki qarshilikka ega bo'lishini elektrodlari orasidagi masofani o'zgartirib turish mumkin bo'lgan galvanik element olib, elektrodlar orasidagi masofa o'zgarganda zanjirdagi tok kuchini o'zgarishi orqali ham aniqlab olish mumkin. Demak turli berk elektr zanjirlari bilan ish ko'rileyotganda zanjirni tok bilan taminlab turuvchi manbaning ichki qarshiliginini ham aniqlab bilish zarur bo'lar ekan.

Bu vazifani bajarishda butun zanjir uchun Om qonuni formulasi

$$I = \frac{E}{R+r} \quad (1)$$

dan foydalaniladi. (1)-chi formulaga ichki qarshilik r kiradi. Lekin bu formulaga EYK va tashqi qarshilik R ham kiradi. Ichki qarshilik r ni aniqlash uchun 1 – rasmida keltirilgan zanjir yig'iladi va tashqi qarshilikning turli qiymatlarida ikki marta tok kuchi va kuchlanish o'chanadi.



Bu ikki o'lhash uchun quyidagi  $E = I_1(R_1+r)$ ;  $E = I_2(R_2 + r)$  (2) munosabatlar o'rnlidir. Ikki tenglikning o'ng tomonlarini tenglashtir  $I_1(R_1+r) = I_2(R_2 + r)$  ga ega bo'lamiz, yoki  $I_1R_1 + I_1r = I_2R_2 + I_2r$ . Bundan  $I_1r_1 - I_2r = I_2R_2 - I_1R_1$ ;  $I_1R_1 = U_1$  va  $I_2R_2 = U_2$  ekanliginidan oxirgi tenglikni  $R(I_1 - I_2) = U_2 - U_1$  ko'inishda yozish mumkin. Bundan

$$r = \frac{U_2 - U_1}{I_1 - I_2} \quad (1)$$

## IV. Ishni bajarish tartibi.

- 1 1-rasmda ko'rsatilgan zanjirni yig'ing.
2. Zanjirni ulang va reostat yordamida zanjirdagi tok kuchini shunday o'zgartiringki, natijada ampermetr strelkasi shkaladagi butun sonni ko'rsatsin.
3. Tok kuchi va kuchlanish qiymatini yozib oling.
4. Zanjir tashqi qarshiligi boshqacha bo'lgan hol uchun tok kuchi va kuchlanishni takror o'lchang.
5. (1) ifodadah tok manbaining ichki qarshiliginini hisoblang.
6. Tajriba kamida uch marta takrorlanadi.
7. Olingan o'lhash va hisoblash natijalariga ko'ra topilgan manbaning ichki qarshiliginini absalyut va nisbiy xatoliklari aniqlanadi.
8. Nisbiy xatoning qiymati 5%-dan kichik bo'lsa, tekshirilayotgan tok manbaining ichki qarshiligining haqiqiy qiymati hisoblab topilgan o'rtcha qiymatga teng deb olinadi.
9. Olingan barcha natijalar qiyidagi jadvalga yoziladi.

N	I <sub>1</sub>	I <sub>2</sub>	U <sub>1</sub>	U <sub>2</sub>	R	r <sub>o'r</sub>	Δr	Δ r <sub>o'r</sub>	N%	r <sub>haq</sub>
1										
2										
3										

## LABORATORIYA ISHI №6

### TOK MANBAINING ELEKTIR YURUTUVCHI KUCHINI ANIQLASH.

**I. Ishning maqsadi:** Tok manbaining elektr yurutuvchi kuchini aniqlashni o'rganish.

**II. Kerakli asboblar:**

1. Tok manbai.
2. Ampermetr
3. Voltmetr
4. Reostat


### III. Nazariy qism

Turli xil tok manbalari elektr zanjiriga ulanganda bu manbalarni o'zlarini qarshiliklari ya'ni manbani ichki qarshiligi bo'l shini hisobga olish zarur bo'ladi. Har bir manba ichki qarshilikka ega bo'l shini elektrodlari orasidagi masofani o'zgartirib turish mumkin bo'lgan galvanik element olib, elektrodlar orasidagi masofa o'zgarganda zanjirdagi tok kuchini o'zgarishi orqali ham aniqlab olish mumkin. Demak turli berk elektr zanjirlari bilan ish ko'rilib turuvchi zanjirni tok bilan taminlab turuvchi manbaning ichki qarshiliginini ham aniqlab ilish zarur bo'lar ekan.

Bu vazifani bajarishda butun zanjir uchun Om qonuni formulasi

$$I = \frac{E}{R+r} \quad (1)$$

dan foydalaniladi. (1)-chi formulaga ichki qarshilik  $r$ , EYK va tashqi qarshilik  $R$  kiradi. EYK  $E$  ni aniqlash uchun 1 – rasmida keltirilgan zanjir yig'iladi va tashqi qarshilikning turli qiymatlarida ikki marta tok kuchi va kuchlanishni o'chanadi.



Bu ikki o'lchash uchun quyidagi  $E = I_1(R_1+r)$ ;  $E = I_2(R_2 + r)$  (2) munosabatlari o'rinnlidir. Ikki tenglikning o'ng tomonlarini tenglashtir  $I_1(R_1+r) = I_2(R_2 + r)$  (3) ga ega bo'l amiz, yoki  $I_1R_1 + I_1r = I_2R_2 + I_2r$  (4) Bundan  $I_1r - I_2r = I_2R_2 - I_1R_1$  (5)  $I_1R_1 = U_1$  va  $I_2R_2 = U_2$  (6) ekanliginidan oxirgi tenglikni  $r(I_1 - I_2) = U_2 - U_1$  ko'rinishda yozish mumkin. Bundan

$$r = \frac{U_2 - U_1}{I_1 - I_2} \quad (7)$$

ekanligi kelib chiqadi (7) ifodani manbaning ichki qarshilagini beradi. (1) ifodadan EYUK topsak

$$E = I \cdot R + I \cdot r \quad (8)$$

bu ifodadagi  $I \cdot R$  zanjirdagi U kuchlanishni bergenligi uchun (8) ifodani quydagicha yozamiz

$$E = U + I \cdot r \quad (9)$$

### IV. Ishni bajarish tartibi.

1. 1-rasmda ko'rsatilgan zanjirni yig'ing.
2. Zanjirni ulang va reostat yordamida zanjirdagi tok kuchini shunday o'zgartiringki, natijada ampermetr strelkasi shkaladagi butun sonni ko'rsatsin.
3. Tok kuchi va kuchlanish qiymatini yozib oling.
4. Zanjir tashqi qarshiligi boshqacha bo'lgan hol uchun tok kuchi va kuchlanishni takror o'lchang.
5. (7) ifodadah tok manbaining ichki qarshiliginini hisoblang.
6. Tashqi qarshiligi boshqacha bo'lgan hol uchun tok kuchi va kuchlanishni takror o'lchab (9) ifoda yordamida manbaning EYUK aniqlanadi manbaning ichki qarshiligi har uchala xolat uchun o'zgarmay qoladi.
7. Tajriba kamida uch marta takrorlanadi.
8. Olingan o'lchash va hisoblash natijalariga ko'ra topilgan manbaning EYUK absalyut va nisbiy xatoliklari aniqlanadi.
9. Nisbiy xatoning qiymati 5%-dan kichik bo'lsa, tekshirilayotgan tok manbaining manbaning EYUK ning haqiqiy qiymati hisoblab topilgan o'rta qiymatga teng deb olinadi.
10. Olingan barcha natijalar quyidagi jadvalga yoziladi.

N	I (A)	U (V)	R (Om)	$\varepsilon$ (V)	$\varepsilon_{0,r}$ (V)	$\Delta \varepsilon$ (V)	$\Delta \varepsilon_{0,r}$ (V)	N (%)
1								
2								
3								

**Nazorat savollari**

- Elektr yurituvchi kuch nima?
- Berk zanjir uchun Om qonuni?
- Kirxgof birinchi qoidasi
- Kirxgof ikkinchi qoidasi
- Qisqa tutashuv nima?
- Manbalarni ketma-ket ulash sxemasi
- Manbalarni parallel ulash sxemasi

**LABORATORIYA ISHI №7****G'ALTAKNING INDUKTIVLIGINI ANIQLASH**

- I. Ishning maqsadi:** 1. Aktiv va reaktiv qarshiliklar farqini o'iganish.  
2. G'altakning induktiv qarshiligidagi aniqlashni o'rganish.
- II. Kerakli asboblar:** O'zgaruvchan tok manbai. Voltmetr. Ampermetr. Induktivlik g'altagi. Reostat va ulash simlari.

**III. Nazariy qism.**

O'tkazuvchi konturdan (elektr zanjiridan) oqayotgan tok kontur atrofida magnit maydon hosil qiladi va bu maydonning magnit oqimi  $\Phi$  tok kuchi I ga proporsionaldir, ya'ni:

$$\Phi = LI \quad (1)$$

Bu yerda L — proporsionallik koefitsiyenti bo'lib, konturning induktivligi deyiladi. Induktivlik (lotincha — inductio uyg'otmoq) faqatgina konturni xarakterlovchi kattalik bo'lib, uning magnit maydoni vujudga keltira olish qobiliyatini ko'satadi va oqadigan tok kuchiga mutlaqo bog'liq emas. Induktivlik shu ma'noda yakkalangan o'tkazgichning elektr sig'imi o'xshab ketadi. Agar o'tkazgichning elektr sig'imi uning qancha elektr zaryadini o'zida mujassamlashtirish qobiliyatini xarakterlasa, induktivlik konturdan tok oqqanda, uning magnit maydon hosil qila olish qobiliyatini xarakterlaydi.

Induktivlikning birligi. Induktivlikning SI dagi birligi — genri (H) bo'lib, amerikalik fizik G. Genri (1797 — 1878) sharafiga shunday nomlangan. (1) ifodadan induktivlikni aniqlab olamiz:

$$L = \Phi/I \quad (2)$$

$$[L] = \frac{[\Phi]}{[I]} = \frac{Wb}{A} = H$$

1H shunday konturning induktivligiki, undan 1 A tok oqqanda hosil bo'lgan magnit oqimi 1 Wb ga teng bo'ladi.

G'altakning induktiv qarshiligidagi aniqlashda undan o'zgaruvchan tok o'tganida shu tokning kuchlanish fazasi  $\frac{\pi}{2}$  oldindagi yuradi. Chastotasi  $\omega$  bo'lgan o'zgaruvchan tokning induktiv qarshiligi, o'zgaruvchan elektr toki uchun Om qonu-nidan kelib chiqqan holda, quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$R_L = \omega L = 2\pi v L \quad (1)$$

bunda:  $L$  — berilgan g'altak induktivligi,  $H$ ;  $v$  — tarmoqdagi o'zgaruvchan elektr tokining chastotasi bo'lib uni 50 Hz deb olishingiz mumkin.

Har qanday o'tkazgich, eng kichik bo'lsa ham aktiv qarshilikka ega bo'ladi. Shuning uchun o'zgaruvchan tok zanjirining to'liq qarshiligini aniqlashda quyidagi ifodadan foydalaniladi:


$$R_L = \frac{U_M}{I_M} \quad (2)$$

(1) va (2) ifodalarni umumlashtirib induktivlikni topsak quydagini hosil qilamiz

$$L = \frac{U_M}{2\pi v \cdot I_M} \quad (3)$$

#### IV. Qurilmaning tuzilishi va ishlashi

Qurilma 0 — 24 V kuchlanish beradigan o'zgaruvchan tok manbai, o'zgaruvchan tok voltmetri va ampermetri, induktivlik g'altagi, kuchlanishni rostlash vazifasini bajaruvchi reostat hamda boshqa yordamchi aslahalardan tashkil topgan. Mazkur ishning elektr zanjiri sxemasi 4.13.1-rasmida keltirilgan. Qurilmani ishga tushirish uchun tashqi o'zgaruvchan tok manbai tarmog'iga 24 V gacha kuchlanish beradigan asbob qo'shiladi. So'ngra qurilmadagi kalit  $K$  qo'shiladi. Shunda zanjirdagi voltmetr va ampermetr ma'lum kuchlanish va tokni ko'rsatadi. Reostat yoki LATR yordamida zanjiiga beriladigan o'zgaruvchan tokning kuchlanishini o'zgartirib, o'lchov asboblarning ko'rsatishlari yozib olinadi. Buning uchun zanjirga elektr tokini qo'shib, reostat yordamida kerakli kuchlanish tanlanadi. Har safar zanjirdagi kuchlanish o'zgartiriladi, elektr asboblarning ko'rsatishi yozib olinib, jadvalga kiritiladi. G'altakning aktiv qarshiligini o'lchashda Koreyadan olingan Uitston «ko'prigi» qo'l keladi.



4.13.1- rasm. G'altakning induktiv qarshiligi aniqlanadigan qurilmaning elektr sxemasi.

#### V. Ishni bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishining yo'riqnomasini o'qib o'rganing.
2. Laboratoriya ishining elektr sxemasini yig'ing va uni o'qituvchiga tekshirtiring.
3. Istalgan induktivlik g'altagini (transformatorning birorta chulg'ami, drossel va sh.k) tanlab, uni zanjirga qo'shing.

4. LATR (laboratoriya avtotransformatori) yoki reostat yordamida elektr zanjiriga 0—20 volt kuchlanishlarni 5V dan oshirib borib, har safar voltmetr va ampermetrning ko'rsatganlarini ketma-ket yozib oling va natijalarni quyidagi jadvalga kriting.

5 (3) ifoda bo'yicha g'altakning induktivligini aniqlang

6. Tajribaning xatoligini hisoblang va ishdan xulosa chiqaring.

Nº	$U_m$ (V)	$I_m$ (A)	$L$ (Hz)	$L_{o'ret}$ (Hz)	$\Delta L$ (Hz)	$\Delta L_{o'ret}$ (Hz)	N (%)
1							
2							
3							

#### Nazorat savollari

1. Induktivlik deb nimaga aytildi?
2. Bir genri ta'rifini aytинг.
3. Solenoid induktivligi qanday parametrлarga bog'liq?
4. O'zinduksiya hodisasini tushunyiring.
5. O' zaro induksiya hodisasi deb nimaga aytildi?

## LABORATORIYA ISHI №8

### TRANSFORMATORNING FOYDALI ISH KOEFFITSIENTINI (FIK) ANIQLASH

**I. Ishning maqsadi:** 1. Transformatorning tuzilishini va ishlash tartibini o'rganish.

2. Transformator FIKning ikkilamchi chulg'am zanjiridagi yuklanishga bog'liqligini o'rganish.

- I. Kerakli asboblar:**
1. 42/4,5 voltli transformator.
  2. Ampermetr.
  3. Voltmetr.
  4. Reostat.
  5. Kalit va o'tkazgichlar.

### III. Nazariy qism.

Transformator o'zaro induksiya hodisasiga asoslangan elektr asbobi bo'lib, chastotasini o'zgartirmasdan o'zgaruvchan tokni va uning kuchlanishini o'zgartirib (pasaytirib yoki kuchaytirib) beradi. Eng sodda transformator ikkita g'altakdan va elektromagnit o'zakdan iborat bo'ladi (32-rasm). Transfonnatorning tok manbaiga ulanadigan g'altagini birlamchi chulg'am (g'altak), iste'molchiga ulanadigan g'altagini ikkilamchi chulg'am deb ataladi.

O'zgaruvchan tok transformatorining birlamchi chulg'amidan tok o'tganda shu g'altak atrofida o'zgaruvchan magnit maydon oqimi hosil bo'ladi va bu maydon, o'z navbatida, elektromagnitli o'zakda o'zgamvchan magnit maydon oqimini hosil qiladi. Hosil bo'lgan bu o'zgaruvchan magnit maydon oqimi transformatorning ikkilamchi o'ramlarini kesib o'tib, unda induksiya EYUK hosil qiladi. Bu induksiya EYUK esa ikkilamchi chulg'am g'altagida induksion tok hosil qiladi.

Transformatorning birlamchi g'altagi tok manbaiga ulanib, ikkilamchi g'altagi iste'molchiga ulanmasa, transformatorning bunday ishlashiga transformatorning *salt ishlashi* yoki bo'sh yurishi deb ataladi. Transformator salt ishlagan vaqtida, birlamchi g'altakdan o'tgan juda ham kichkina tokka *salt ishlash toki* deyiladi.

Umuman olganda, transformator, elektr toki kuchlanishini o'zgartiruvchi asboblardan biri bo'lib, unda energiyaning behuda isrofi juda oz bo'ladi. Katta quwatli takomillashgan transformatorning FIK 96—99% bo'ladi. Agar transformatorning birlamchi g'altagidagi quvvat  $N_2 = I_2 U_2$  ni 100% desak, unda ikkinchi g'altakdagi iste'molchilarga uzata oladigan

quvvati  $N_1 = I_1 U_1$  ga teng bo'ladi. Demak, transformatorning FIK ni hisoblash formulasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\eta = \frac{N_2}{N_1} \cdot 100\% \text{ yoki } \eta = \frac{I_2 U_2}{I_1 U_1} \cdot 100\% \quad (1)$$

### IV. Qurilmaning tuzilishi va ishlashi

Qurilma birlamchi va ikkilamchi chulg'amlar o'ralgan elektromagnitli po'lat o'zak, birlamchi va ikkilamchi chulg'amlardagi tok va kuchlanishlarni mos ravishda o'lchaydigan ampermetr va voltmetrlar, iste'molchi vazifasini o'taydigan reostat hamda boshqa yordamchi aslahalardan tuzilgan. Po'lat o'zak yupqa va tez magnitanuvchi ferromagnit material (yumshoq po'lat) dan iborat.


Yupqa po'lat plastinkalarning usti maxsus lok bilan qoplanadi va ular bir-biriga tegmaydi. Bunday usulda loklanishiga asosiy sabab uyurmaviy (Fuko) tokni kamaytirishdan iborat. Transformator konstruksiyasiga qarab, uning plastinkalari P va Sh shaklida tayyorlanadi. Transformatorlar bir, ikki va uch fazali bo'ladi.

Transformatorlar elektromagnit induksiya hodisasining xususiy holi, ya'ni o'zaro induksiya qonuniga muvofiq ishlaydi. Transformator birinchi marta 1878- yili P. N. Yablochkov tomonidan ixtiro etilgan bo'lib, uni I. F. Usagin takomil-lashtirgan.

Qurilmani ishga tushirish uchun kirishidagi kuchlanish 42 V va chiqishidagi kuchlanish 4,5 V bo'lgan o'zgaruvchan tok beruvchi asbobni laboratoriya xonasidagi 42 V elektr tarmog'iga ulanadi va asbobdagi kalit qo'shiladi. Shunda signal lampachasi shu'lalanadi. Kalit  $K_x$  qo'sh 32 - rasm so'ng transformatorning birinchi chulg'amidagi o'lchov asboblari tok va kuchlanishni ko'rsatadi. Ikkinchi chulg'am zanjiridagi kalit  $K_2$  qo'shilganida esa iste'molchi olayotgan quvvatni undagi o'lchov asboblari ko'rsatadi. Qurilmaning elektr sxemasini 32- rasmida keltirilgan.

### V. Ishni bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishining yo'riqnomasini o'qib o'rganing. Elektr toki bilan ishlashning texnika xavfsizligi talablarini o'rganing. O'qituvchining savollariga javob berib, ishning elektr sxemasini yig'ishga ruxsat oling.



4.17.2- rasm.

2. Transformatorning tuzilishini o'rganing. Transformatorning pasporti bilan tanishib, uning ikkala g'altagi uchun nominal kuchlanish va tokni aniqlang.

3. Yuqoridagilarga asosan transformatorning birlamchi va ikkilamchi g'altaklariga ulanadigan o'lchov asboblarini ajratib oling.

4. 32- rasmdagi sxemani yig'ing va uni o'qituvchiga tekshirtiring.

5. Transformatorning ikkilamchi g'altagini iste'molchiga ulamasdan birlamchi g'altagini tok manbaiga ulab, ya'nii transformator salt ishlagan vaqtida o'lchov asboblarining ko'rsatishlarini yozib oling.

6. Reostat jilgichini eng katta qarshilikka surib qo'ying.

7. Transformatorning ikkilamchi g'altagini iste'molchiga ulab, tokni bir tekis 10 ampergacha oshirib boring va bar safar ampermestr va voltmetrning ko'rsatganlarini yozib oling.

8. Tajribada olingen natijalarga asosan (1) ifodadan  $\eta$  ni hisoblang.

9. Tajribada topilgan natijalarni quyidagi jadvalga yozing.

Nº	I <sub>1</sub>	U <sub>1</sub>	N <sub>1</sub>	I <sub>2</sub>	U <sub>2</sub>	N <sub>2</sub>	$\eta$	$\eta_{or}$	$\Delta\eta$	$\Delta\eta_{or}$	N%
1											
2											
3											

### Nazorat savollari

1. Transformatorning ishlashi qanday fizik hodisaga asoslan-gan?
2. Transformatorning salt ishlashi deb nimaga aytildi?
3. Transformatorning ish vaqtida energiyaning behuda sarfi nima sababga ko'ra paydo bo'ladi?
4. Transformatorning FIK qanday hisoblab topiladi?
5. Transformator energetika va elektronika sohalarida qanday ahamiyatga ega va ularda nima maqsadda qo'llaniladi?

## LABORATORIYA ISHI № 9

### LINZANING FOKUS MASOFASINI ANIQLASH

**I. Ishning maqsadi:** 1. Yig'uvchi va sochuvchi linzalarning fokus masofalarini aniqlashni o'rganish.

2. Linzalarda tasvir yasashni o'rganish.

3. Linzaning optik kuchini aniqlashni o'rganish.

**II. Kerakli asboblar:** Optik taglik (optik asboblarni tutib turuvchi to'g'ri chiziqli, tor tekis yuzali qo'sh metall taxta). Linza, prizma, ko'zgu o'rnatiladigan tayanchlar.

Yoritkich (yorug'lik manbai)- Tok manbai. Yorug'lik kondensori. Ekran yoki ko'rish trubasi (durbin). Buyum (tik chizilgan qora strelka). Linzalar.

### III. Nazariy qism.

Optik elementlarga yorug'lik nurini yaxshi o'tkazadigan shaffoflinzalar, shisha plastinkalar, prizmalar, ko'zgular kiradi.

Ayrim optik asboblarda bir necha linza, plastinka, prizma va boshqalar qo'llanilsa, ayrimlarida bittagina linza qo'llani-ladi. Masalan, lupa — bir linzali optik asbob.

Linzaning eng qalin (qavariq) joyining qalinligi linzadan keyin tasvir hosil bo'ladigan nuqtagacha bo'lgan masofadan juda kichik bo'lgan linzalarni yupqa /inzalardcyih/. Linzalar yordamida tasvir yasash orqali linzaning fokusini aniqlash mumkin. Linzaning ayrim kattalikfari berilsa, lining fokus masofasini linza formulasi yordamida hisoblanadi, bunda:  $F$  — linzaning fokus masofasi;  $a$  — buyumdan to linzaning markazigacha bo'lgan masofa;  $b$  — linzaning mar-kazidan to tasvirgacha bo'lgan masofa.  $1/F = D \sim$  linzaning optik kuchini ifodalaydi.

Linzaning bosh optik o'qida yotuvchi va uning chap hamda o'ng tomonlarida, shu optik o'qiga parallel bo'lib tushgan nurlarning linzadan o'tib o'zaro kesishadigan nuqtalarini iizanzaning oldingi va orqa fokuslari dcyiladi

$$\frac{1}{F} = \frac{1}{a} + \frac{1}{b},$$

Buyumdan limzaga tushayotgan uchta numi qarab chiqamiz. 4-a, b rasmda 1 nur linzaning bosh optik o'qiga parallel, linzadan o'tgandan so'ng sinib, uning o'ng tomonidagi  $F$  fokusida yig'iladi. 2 nur linzaning bosh optik o'qi bo'ylab to'g'ri o'tadi, sinmaydi. 3 nur esa linzaning oldingi  $F$ fokus

nuqtasidan o'tib, linzaga tushadi va undan sinib o'tib, bosh optik o'qqa parallel bo'lib ketadi.

Demak, tasvir bir nuqtadan chiqqan nurlar va har xil yo'llar bilan linzadan o'tgandan so'ng (yoki davomlarining) o'zaro kesishadigan nuqtasida haqiqiy (yoki mavhum) bo'lar ekan.

#### IV. Ishning bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishining yo'rinqomasini o'qib o'rganing va ishni bajarishga zarur asboblarning mayjudligini aniqlang. O'qituvchining savollariga javob berib, ishni bajarishga ruxsat oling va yoritkichni qo'shing.

##### 1 - top shiri q. Yig'uvchi linzaning fokus masofasini aniqlash.

2. Ko'rish trubasi (6') bilan yoritkich (3) o'rtasiga yig'uvchi linza (2) ni joylashtiring va yoritkichni clktr man-baiga qo'shib, linzani siljitan holda ko'rish trubasida bu yunning aniq tasvirini hosil qiling.

3. Buyumdan to iinzingan markazigacha hamda linza markazidan tasvirkacha bo'lgan (optik taglik bo'yicha) masofaiarni o'lchang va yozib oling (bu o'lchashni kamida uch marta takrorlang).

4. Olingan natijalar asosida  $F_i$  ni (1) formuladan (linzaning fokus masofasi) toping.

Nº	a(sm)	b(sm)	F	$F_{o'r}$	ΔF	$\Delta F_{o'r}$	η
1							
2							
3							

#### Nazorat savollari

1. Linza deb nimaga aytildi va ular necha xil bo'ladi?
2. Linzalar yordamida buyum tasviri qanday hosil qilinadi?
3. Linza formulasini yozing (yupqa linza uchun).
4. Linzalar qanday optik asbobiarda qoilaniladi?

## LABORATORIYA ISHI № 10

### DIFRAKSION PANJARA YORDAMIDA YORUG'LIK TO'LQIN UZUNLIGINI ANIQLASH

**I. Ishning maqsadi:** 1. Oq yorug'lik 7 xil rangdagi va to'lqin uzunligidagi nurlardan tashkil topganligi haqida tushuncha berish.

2. Yorug'likning har xil rangiga turli xil to'lqin uzunliklari mos kelishini tajribada aniqlashni o'rganish.

3. Difraksion panjara haqida tushuncha va tasavvur hosil qilish.

**II. Kerakli asboblar:** Yorug'lik manbai, tirqish, difraksion panjara, linza, ekran, o'lchov lineykasi.

#### III. Nazariy qism.

Yorug'lik nuri elektromagnit to'lqin bo'lib, uning zarrasi **foton** deyiladi. Yorug'lik oqimining zarralari ham to'lqin tabiatiga egaligidan u elektromagnit to'lqin qonunlariga bo'yusunadi. Yorug'lik nurining elektromagnit to'lqinlardek sinishi, qaytishi, moddalardan o'tishi, ularda yutilishi, difraksiyasi va interferensiyasini kuzatish mumkin.

Nur dastasi yetti xil ko'zga ko'rindigan va ko'zga ko'rind-maydigan infraqizil hamda ultrabinafsha nurlardan tashkil topgan. Oq yorug'lik oqimi faqat ko'zga ko'rindigan yetti xil rangda tovlanuvchi nurlardan iborat bo'lib, uning to'lqin uzunligi  $\lambda = (4 - 8) \cdot 10^{-7}$  m oralig'iда yotadi.

Yorug'lik nurida kuzatiladigan har qanday hodisani to'lqin nazariyasi asosida tushuntiriladi. Yorug'likning kvant xossalari tayangan holda har bir yorug'lik hodisalari tahlil qilinsa, to'g'ri va aniq javoblar topiladi.

Agar difraksion panjara kengligi  $AB$ , panjara doimiysi  $d$  bo'lsa, unda BC quyidagicha ifodalanadi:  $BC = Nd \sin \alpha$  (2)


Demak, (1) ifodaga (2) ni qo'yib, undan yorug'lik to'lqin uzunligi to piladi, ya'nı  $N\lambda = Nd \sin \alpha$

#### Difraksion panjaradan yorugiuk nuri o'tishining sxematik tasviri.

E s 1 a t m a. Har bir difraksion panjarani tayyorlagan zavod undagi tirqislilar sonini, panjara doimiysi sini ko'rsatadi.

#### IV. Qurilmaning tuzilishi va ishlashi

Yorug'lik nurining to'lqin uzunligini difraksion panjara yordamida aniqlash tajribasini quyidagicha tashkil qilamiz. Ishda yorug'lik manbai sifatida labaratoriya lazeridan



foydalananamiz. Lazer manbaining oldiga difraksion panjarani tutib turuvchi maxsus moslama taglikka o'rnatiladi (1-rasm). Lazer o'rnatilgan taglikni shunday gorizontal holatda (stol ustiga) qo'yish kerakki, undan chiqayotgan nur ekranga tik tushsin. Laboratoriya lazeri tok tarmog'iga ulanadi. Lazer manbai ishga tushirilgach ekranda hosil bo'lgan maksimumlarning joylashishiga ko'ra o'lhash ishlari olib boriladi. 1-chizmada difraksion panjaradan o'tayotgan nurlarning yo'llari tasvirlangan.

### 1-Laboratoriya lazeri


### 2-Difraksion panjara

### 3-Ekran

Kuzatilayotgan birinchi interferinsion maksimumga ko'ra o'lhash ishlari quyidagicha amalga oshiriladi. Masalan, k=1 hoi uchun, nurning yo'l uzunligi SOHL va OA-h ( $k=2$  da OB=h deb olinadi) o'lchov chizg'ichi yordamida o'lchab olinadi. Kichik burchaklarda sina «tga ekanligini e'tiborga olib quyidagi tenglikni yozamiz:

$$\lambda = \frac{d}{k} \frac{h}{L} \quad (2)$$

1-chizma asosida yig'ilgan qurilmaning umumiy ko'rinishi 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm

### V. Ishning bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishining yo'riqnomasini o'qib o'iganing, o'qitavchining savollariga javob berib, ishni bajarishga ruxsat oling.
2. Laboratoriya qurilmasini ko'zdan kechiring va undagi asboblarning to'laligini tekshiring.
3. Metrli chizg'ich ustiga mahkamlangan asboblarni yorug'lik manbaiga to'g'ri yo'naltiring.
4. Yorug'lik oqimini hosil qiluvchi elektr lampani tok manbaiga  $K$  kalit yordamida ulang.

5. Lampa shu'lalangandan so'ng, shu lampaga tirkishli chizg'ich tirkishi orqali qarab, lampaning cho'g'lanuvchi tolasi aniq ko'rindigan qilib tirkishli chizg'ich (TL)ni joylashtiring.

6. Difraksion panjarani metrli chizg'ich oxiridagi maxsus joyga o'rnating.

7. Difraksion panjara orqali yorug'lik manbaiga qarab chiziqli spektrlar ko'ringaniga ishonch hosil qiling.

8. Difraksion panjara orqali tirkishli chizg'ichning o'rtasidagi «0» nuqtadan awal o'ng tomonga qarab biror

aniq spektr chizig'ini, so'ngra chap tomonga qarab ikkinchi spektr chizig'ini shu chizg'ichning qoraga bo'yalgan qismi ustida ko'rib, ulaming noldan chiziqli spektrgacha bo'lgan masofalarini aniqlang. Bunda noldan o'ng va chap tomonlar-dagi chiziqlargacha bo'lgan masofalar  $h_{\text{ang}}$  va  $h_{\text{chap}}$  deb olinadi.

9. Bir rangdagi chiziqli spektrlargacha bo'lgan masofalarni kamida uch martadan aniqlangandan so'ng ulaming o'rtachasini jadvalga kriting.

10. Difraksion panjaradan tirkishli chizg'ichgacha bo'lgan masofani har safar o'zgartirib, spektr chiziqlari orasidagi  $h$  masofani aniqlang.

11. Aniqlangan  $l$  va  $h$  asosida  $X$  ni hisoblang.

Nº	$l(\text{sm})$	$h(\text{sm})$	$D(\text{sm})$	$\lambda$	$\Delta_{\text{o'r}}$	$\Delta \lambda$	$\Delta \lambda_{\text{o'r}}$	$\eta$
1								
2								
3								

### Nazorat savollari

1. Spektr necha xilda bo'ladi va ular qanday nomlanadi?
2. Yorug'lik to'lqinmi yoki fotonlar oqimimi?
3. Oq yorug'lik oqimi spektrida necha xil rangli chiziqlar bor?

## LABORATORIYA ISHI № 11

### FOTOELEMENTLI RELENING TUZILISHI VA ISHLASHINI O'RGANISH.

#### Maqsad

Fotoelementli relening tuzilishi va ishlashini o'rganish.

#### Asbob va jihozlar

Laboratoriya universal ta'minlash manbai, "Fotometriya qonunlarini o'rganish asbobi", mikroampermetr, reostat, "Yarimo'tkazgichlar xususiyatlarini o'rganish bo'yicha to'plam", taglikka o'rnatilgan elektr lampochka, elektromagnit rele, kalit, ularash simlari.

#### Ishning nazariy asosi

Rele atamasi bilan kam quvvatli signal yordamida katta quvvatli qurilmalarning ishini boshqaradigan asboblarni ataydilar. Har qanday avtomatik boshqariladigan qurilmalarning ishini relelar yordamida boshqariladi. Ishlash prinsipiga ko'ra, relearning mexanik, tovush, yorug'lilik, elektron va boshqa turlari bo'ladi. Ushbu ishda biz fotoelementli relening ishlash prinsipi bilan tanishib chiqamiz.

4. Ishni bajarish qurilmasida elektromagnit relening ishini fotoelement boshqaradi. Istalgan elektromagnit rele o'zaro aloqador bo'lgan ikki qismidan iborat, Birinchi qism qo'zg'almas elektromagnit va harakatlanuvchi yakordan iboratdir. Elektromagnit relening ikkinchi qismi uning kontaktlaridir.

Elektrotexnik sxemalarda rele va kontaktlar quyidagi tarzda belgilanadi:


Qurilmada qo'llanilgan fotoelementga yorug'lilik tushsa unda kuchsizgina tok hosil bo'lad. Bu tok elektromagnit releni ishga rushirishga etarli emas, shuning uchun bu tokni tranzistor yodamida kuchaytirib olinadi. Fotoelementli eng sodda relening elektr sxemasi quyidagi chizmada berilgan:

Bunday prinsipda ishlaydigan relelardan yong'in haqida xabar berish va undan himoyalanish qurilmalarida foydalaniladi. Rele signal beruvchi sirena va maxsus yong'in o'chirish nasoslari zanjiriga ulanadi. Qorong'i xonada yong'in chiqqanda yong'in alangasi fotoelementni yoritadi, u elektromagnit releni ishga tushiradi. Rele kontaktlari ulanadi va bir vaqtning o'zida sirenani hamda yong'in o'chirish nasoslari dvigatellarini ishga tushiradi.

#### Qurilmaning tuzilishi va ishlashi

1-chizma asosida yig'ilgan qurilmaning umumiy ko'rinishi 2-rasmida keltirilgan. Sxemadagi fotoelement o'nida "Fotometriya qonunlarini o'rganish asbobi" dan foydalmladi.

"Fotometriya qonunlarini o'rgnish asbobi" umumiy asosdagi ikkita ustunga gorizontal holatda mahkamlangan qobiqdan iborat.




1 - rasm

Qobiq ikkita qismdan iborat: kamera va va uning ichiga yig'ilgan fotoelement, ya'ni yorug'lilik energiyasini elektr energiyasiga aylantiruvchi asbobdan. Shunday qilib, fotoelement uning yorug'lilikka sezgir yuzasiga tushuvchi elektromagnit nurlanishning qabul qilgichi hisoblanadi, bunda hosil bo'lувчи fototok esa yorug'lilik oqimining intensivligiga proporsionaldir.

5. Bizga ma'lumki bu asboning chap tomonidagi kamerada fotoelement joylashgan, Asbobni qurilmaga ularshdan oldin uni ishga tushirib, mikroampermetr yordamida fotoelementning qutblarini aniqlab olamiz, chunki bu narsa releni yig'ishda muhim ahamiyatga ega.

6. Qurilmada "Elektronika-1" ko'chma laboratoriya jamlanmasidagi elektromagnit reledan va "Yarimo'tkazgichlar xususiyatlarini o'rganish to'plami" dagi KT 816F tranzistoridan foydalnilgan. Fotoelementning musbat qutbiga universal ta'minlash manbaining "—" qutbini va KT 816 F tranzistorining emitter klemmasi ulanadi, fotoelementning manfiy qutbiga tranzistorning baza klemmasi ulanadi. Tranzistor kollektori elektromagnit rele chulg'ami klemmasinig biriga ulanadi, rele chulg'aming ikkinchi klemmasi universal ta'minlash manbaining "+" qutbiga ulanadi.

7. Yig'ilgan zanjirning bu qismi boshqaruvchi zanjir deb ataladi. Universal ta'minlash manbaining o'zgaruvchan tok chiqaruvchi klemmalariga elektromagnit relening tutashtiruvchi kontaktlarini va elektr lampochkasini ketma-ket ulab, bajruvchi zanjir yig'iladi.



### Ishni bajarish tartibi

1. 1-chizma asosida elektr zanjir tuziladi.
2. Zanjir yig'ib bo'lingach, ta'minlash manbaini 42 V li o'zgaruvchan kuchlanish tarmog'iga ulab, qurilma ishga tushiriladi. Qurilma yaxshi ishlashi uchun ta'minlash manbaidan unga 10 V atrofida kuchlanish beriladi.
3. Fotoelement sirtiga yorug'lilik yaxshi tushishi uchun elektr lampochkani siljити, kerakli vaziyatga joylashtiriladi.
4. Fotoelement sirtiga yorug'lilik tushganda rele ishga tushib, bajaruvchi zanjirdagi elektr lampochkaning yonishi kuzatiladi.
5. Reostat yordamida "Fotometriya qonunlarini o'rganish asbobi" dagi lampochkaga berilayotgan tokning kuchini kamaytirib, bunda yoritilanlikning kamayishi hisobiga rele elektr lampochkani zanjirdan uzishi va uning o'chishini kuzatiladi.
6. Reostat jilgichini surib, tokning kuchini oshira borib reining ishga tiushish toki aniqlanadi.
7. Qurilmaning ishslashini kuzatib umumlashtiruvchi xulosalar chiqariladi va ularni daftarga yozib olinadi, qurilmaning elektr sxemasi chizib olinadi.

### 2-tajriba

2-chizma yarimo'tkazgichli foterezistor elektr qarshiligining yoritilanlikka bog'liqligini o'rganish qurilmasining sxematik ko'rinishi keltirilgan. Qurulma yarimo'tkazgichli foterezistor, laboratoriya universal ta'minlash manbasi, yorug'lilik manbasi va ommetr dan iborat. Foterezistorning sirtiga yorug'lilik nuri tik tushadigan ho Ida o'natiladi. Foterezistorning qarshiligini aniqlash uchun unga parallel ravishda ommetr ulanadi. Foterezistor va yorug'lilik manbalari orasidagi masofani o'zgartirib, foterezistorning qarshiligi o'chanadi.

8.2-chizma 2-chizma asosida yig'ilgan qurilmaning urnumiy ko'rinishi 2-rasmida keltirilgan:

### Ishni bajarish tartibi

1. 2-chizma asosida elektr zanjir tuziladi.
2. Yorug'lilik manbasi foterezistor sirtiga tik o'natiladi
3. Yorug'lilik manbasi va foterezistor sirti orasidagi masofa chizg'ich yordamida o'chanadi,  $I_1 = \dots \text{sm}$
4. Foterezistor sirtiga nur tushiriladi va uning qarshiligi ommetr yordamida o'chanadi,  $R_1 = \dots \Omega$
5. Yorug'lilik manbasi foterezistor sirtiga yaqinlashtiriladi va ular orasidagi masofa o'chanadi,  $I_2 = \dots \text{sm}$
6. Ommetr yordamida foterezistorning qarshiligi o'chanadi,  $R_2 = \dots \Omega$
7. Foterezistor va yorug'lilik manbasi orasidagi turli masofalar uchun tajriba takrorlanadi.
8. Olingan natijalar asosida quyidagi jadval to'diriladi.

N	$I$	2	3	4
/, sm				
$R, \Omega$				

## LABORATORIYA ISHI №12

### FOTOELEMENT SEZGIRLIGINI ANIQLASH

#### I. Kerakli asboblar:

1. Selenli fotoelement;
2. Mikroampermetr;
3. Fotometriya qonuniyatlarini o'rrganuvchi asbob;
4. Tok manbai;
5. Voltmetr;
6. Ulagich simlar;

#### II. Ishning maqsadi:

1. Fotoeffekt xodisasi va uning qonuniyatlarini o'rganish.
2. Fotoelement sezgirligini aniqlash.

#### III. Nazariy qism

Yoruglik kvanti modda atomi bilan to'qnashganda, shu atomdan elektronni urib chiqarishi mumkin. Bunday yo'l bilan chiqarilgan elektron erkin bo'lib qoladi. Bunday elektornlarga fotoelektronlar ham deyiladi.

Yoruglik kvanti ta'sirida atomdan elektronni urib chiqarish xodisasiga fotoelektrik xodisasi deyiladi. Fotoeffekt xodisasi elektr va optik xodisalar o'rtasida o'zaro bog'lanish mavjudligidan kelib chiqadi. Hosil bo'lgan fotoelektron va shu modda o'rtasida bo'ladigan o'zaro ta'sirqa qarab, fotoeffektni quyidagicha turlarga bulish mumkin:

1. Urib chiqarilgan fotoelektron modda atomidan ajralsa-yu, shu moddani to'lik tashlab chiqib ketmasa, bunday hodisaga ichki fotoeffekt deyiladi (kristallik fotoelement).

2. Agar urib chiqarilgan fotoelektron atomidan ajralishi bilan bir vaqtda, shu modda sirtidan to'lik uzilib chiqsa, bunday hodisaga tashqi fotoeffekt deyiladi. (gaz to'ldirilgan shisha balonli fotoelementlar).

3. Agar fotoelektron atomdan ajralsa-yu, ammo shu modda bilan chegaradosh qo'shni moddaga o'tsa, bunday fotoeffekt berkituvchi (ta'kiklovchi) qatlamlili fotoeffekt deyiladi. Bunday fotoeffekt hodisasi qattiq holdagi yarim o'tkazgichlarda, suyuq elektrolit qatlamlarida yuz berishi mumkin.

Fotoeffekt hodisasini ifodalaydigan asosiy tenglama energiyaning saqlanish qonuniga asoslanadi. Bu tenglama bevosita modda atomi bilan to'qnashadigan yoruglik kvanti energiyasi ( $E=hn$ ) bilan atomdan urib chiqarilgan elektornni chiqish ishi  $A$  va shu fotoelektorning olgan kinetik


#### Fizika fanidan laboratoriya ishlari to'plami

energiyasi  $\frac{mv^2}{2}$  orasidagi boglanishni A. Eynshteyn quyidagi tenglama ko'rinishda ifodalagan.i

$$hv = A + \frac{mv^2}{2} \quad (1)$$

bu yerda  $h$ - Plank doimiysi bo'lib,  $h=6,210^{-34}$  Js;  $v$ -tushadigan yorug'lik nurining chastotasi;  $A$ -elektronning chiqish ishi;  $m$ - elektronning massasi;  $v$ -fotoelektronning olgan maksimal tezligi.

Fotoeffekt hodisasiga asoslanib ishlaydigan asbobga fotoelement deyiladi. Fotoelementlar o'zlarining tuzilishi va ishlatilishidan ko'zda tutilgan maqsadiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Tashqi fotoeffekt hodisasiga asoslanib ishlaydigan fotoelementlarga vakumli yoki gaz bilan to'ldirilgan fotoelementlar deyiladi. Berkituvchi qatlama ega bo'lgan fotoelementlar ham mavjud bo'lib, bunda yarim o'tkazgich moddalardan foydalilanadi. Xuddi shunday fotoelementga selenli (Berkituvchi qatlamlili) fotoelement misol bula oladi.



Bu ishda selenli fotoelement qo'llanilgan bo'lib, u to'rtburchak shakildagi (1) yupqa temir plastinkaga (2) selen qatlamini qoplash bilan hosil qilinadi. Selen qatlami ustiga (3) yupka nodir metall parda qoplanadi (1- rasm).

Temir va nodir metall qatlamlariga klemmalar payvand qilingan bo'lib, elektr zanjirga ulanadi. Maxsus ishlov tufayli nodir metall selen ichiga diffuziyalanishiga erishiladi. Agar selen kovakli o'tkazuvchanlikka

ega bo'lsa nodir metall elektron o'tkazuvchanlikka ega bo'lib qoladi. Natijada elektron-kovak o'tishi hosil bo'ladi.

Fotoelementga yorug'lik ta'sir ettirilsa, nodir metallda elektronlar, selenda kovaklar to'plana boshlaydi. Natijada fotoelement qisqichlarida fotoelektr yurituvchi kuch hosil bo'ladi.

### Fotoelement sezgirlingini aniqlash

Fotoelementning sezgirlingi  $\gamma$  deb, fotoelementda hosil bo'ladigan fototok i ning kattaligining fotoelementga tushadigan yorug'lik oqimi  $\Phi$  ga bo'lgan nisbatiga aytildi.

$$\gamma = \frac{i}{\Phi} \quad (2)$$

(1) formuladagi yorug'lik oqimi,  $\Phi = ES$  ekanligidan foydalanamiz, E - yoritilganlik, S - yorug'lik tushadigan yuza. Yoritilganlik qonuniyatiga ko'ra

$$E = \frac{J}{r^2} \text{ ga teng bo'ladi.}$$

Agar yorug'lik oqimi fotoelement yuzasiga normal bo'yicha tushadigan bo'lsa, (2) formulani quyidagicha ko'rinishda yozamiz:

$$\gamma = \frac{i}{\Phi} = \frac{i}{ES} = \frac{ir_0^2}{J \cdot S} \quad (2a)$$

Bu yerda

$J$ - yorug'lik manbaining yorug'lik kuchi hisoblanadi;  $r_0$ - yorug'lik manbai bilan fotoelement orasidagi masofa;  $S$ - fotoelementni yorug'likka sezgir bo'lgan qismining yuzasidir.  $S$ - ni diafragma diametri orqali ifodalash mumkin, ya'ni:

$$S = \frac{\pi D^2}{4} \quad (\text{Diafragma diametri. } D=2\text{sm.})$$


Bundan foydalanib (2) formulani quyidagicha ko'rinishda ifodalaymiz:

$$\gamma = \frac{4ir_0^2}{J\pi D^2} \left( \frac{mkA}{kg} \right) \quad (3)$$

formula fotoelement sezgirlingini tajribada aniqlashga imkon beradi.

Ishni bajarishdan oldin fotometriya qonunlarini o'rganishga imkon beradigan 2- rasmdagi asbob tuzilishi bilan qiskacha tanishib olmoq lozim.

Asbob gorizontal taglikka o'rnatilgan, ochilish va yopilish imkoniyatiga ega bo'lgan metal (plstmassa) to'g'ri burchakli trubkadan iborat. 1 - gorizontal trubka bo'lib ikki uchi maxkamlangan. Bu trubkaning chap tomonida alohida bo'lgan qismida 2-selenli fotoelement o'rnatilgan. Bu fotoelementning ikkita qutbiga ulagan simlar orqali ikkita kontakt chiqarilgan bo'ladi. Ishni bajarish vaqtida shu ikki kontaktlar juda sezgir 4- mikroampermetrga ularadi. Ochilib yopiladigan to'g'ri burchakli trubkaning ichiga yorug'lik manbai sifatida elektr lampochkasi o'rnatilgan bo'ladi.



3- dastak yordamida fotoelementni gorizontal o'q atrofida  $90^\circ$  gacha burish mumkin. Fotoelement o'qda perpendikulyar joylashgan bo'ladi. Fotoelement buralish burchagini asbob korpusidagi shkaladan ko'rish mumkin.

Qurilmaning elementar sxemasi 2-rasmda ko'rsatilgan.

### IV. Ishni bajarish tartibi

1. Yorug'lik manbai tok manbaiga ularadi, unga ma'lum bir kuchlanish berildi. Shu kuchlanishda yonadigan lampochkaning yorug'lik kuchi aniqlanadi.(laborant yoki o'qituvchi tomonidan aytildi).

2. Fotoelement bilan yorug'lik manbai o'zaro ma'lum birmasofaga o'rnatiladi. Masofa shunday tanlanishi kerakki, mikroampermetr strelkali shkalasining yarmidan ko'progiga og'adigan bo'lsin.

3. Mikroampermetr strelkasiga qarab fototok kattaligi lampochka bilan fotoelement orasidagi  $r_0$ -masofa aniqlab olinadi.

4. Fotoelement diafragmasining diametri  $D$  o'lchab olinadi. ( $D=2$  sm).

5. Fotoelement bilan lampochka orasidagi masofani juda ozgina bir necha millimetrdan-santimetrgacha o'zgartirib, i va  $r_0$  lar 5-7 marta takroriy aniqlanadi.

6. Olingan natijalar (3) formulaga qo'yiladi va har bir  $r_0$  hamda i-ning qiymatlariga mos keladigan  $\gamma$ -ning qiymatlari hisoblab topiladi. Olingan natijalarning barchasi quyidagi jadvalga yoziladi.

Nº	i (mA)	$r_0$ (sm)	$\gamma, \left( \frac{mKA}{kg} \right)$	$\gamma_{0\cdot rt}$	$\Delta\gamma_{0\cdot rt}$	$\gamma_{haq} = \gamma_{0\cdot rt} \pm \Delta\gamma$
1.						
2.						
3.						
4.						

### Nazorat uchun savollar

1. Fotoeffekt hodisasining ochilishi va uning qonuniyatlari haqida gapiring.
2. Fotoeffekt hodisasini nima sababga ko'ra yorug'likning to'lqin tabiatiga ko'ra tushuntirib bo'lmaydi?
3. Elektronlar chiqish ishining fizik mohiyatini tushuntiring.
4. Fotoeffektning qizil chegarasini tushuntiring.

### LABORATORIYA ISHI №13

#### TAYYOR FOTOSURATLAR BO'YICHA ZARYADLI ZARRACHALRNING TREK (IZ) LARINE O'RGANISH.

**I. Ishning maqsadi:** 1. Elementar zarrachalar va ularni xususiyatlarni o'rganish.

2. Elementar zarrachalarni o'rganish usullari bilan tanishish.

**II. Kerakli asbob-uskunalar:** 1.Trek ( iz ) larni fotosuratlari. 2. Tiniq shaffof qog'oz. 3.Uchburchakli (lineyka) chizg'ich. 4. Sirkul. 5. Qalam, qog'oz.

#### III. Nazariy qism

Elementar zarralarni kuzatish va ularni turli xossalari tekshirish uchun turli ushullardan va turli asboblardan kuzatiladi. Bu xil asboblardan biri Vilson kamerasi bo'lib, bu asbobda kameraga kirib kelgan zarrachalarni izlari ularni boshlang'ich xarakteristikalariga (tezligi, massasi, energiyasi, zaryadi va hak..) mos bo'ladi.

Agar Vilson kamerasi magnit maydonga joylashtirilgan bo'lsa, unda harakatlanuvchi zaryadli zarraga (zarra tezligining yo'naliishi maydon induksiya chiziqlariga tik bo'lgan holda) quyidagicha

$$F = ZeV B \quad (1)$$

Lorens kuchi ta'sir qiladi. Bu yerda Ze-tekshirilayotgan zarrachaning zaryadi, v- uning tezligi, B- magnit maydon induksiyasi. Bu holda Lorents kuchi markazga intilma kuch bo'ladi ya'ni:

$$ZevB = mv^2/r \quad (2)$$

Bu yerda m- zarrachaning massasi, r- zarracha treki (izi) ning egrilik radiusi. (2) ga ko'ra

$$r = (mv)/(ZeB) \quad (3)$$

Demak zarrachaning tezligi yorug'lik tezligidan ko'p marta kichik bo'lgan holler uchun bu zarrachaning kinetic energiyasini quyidagicha yozish mimkin ekan

$$E_k = mv^2/2 = (ZeBr)^2/2m \quad (4)$$

Hosil qilingan munosabatlarga ko'ra elementar zarrachalarni treklarini (izlarini) tahlil qilish bo'yicha quyidagicha xulosalar qilish mumkin ekan.

1. Trekning (izning) egrilik radiusi-zarranining massasiga, tezligiga va zaryadiga bog'liq. (Zarranining massasi va tezligi qancha kichi va zaryadi

esa qancha katta bo'lsa uning trekining egrilik radiusi shuncha kichik, zarrachaning to'g'ri chiziqli harakatdan og'ishi shuncha katta bo'ladi).

2. Yugurish masofasi oxirida zarraning tezligi kamayishi hisobiga, trekning egrilik radiusi ham kamaydi, ya'ni to'g'ri chiziqli harakat yo'nalishidan og'shish ko'payadi.

3. Zarraning kameraga uchib kirish tezligi va uning kameradagi harakat traektoriyasini egrilik radiusi ma'lum bo'lsa

$$Ze/m (5)$$

-nisbatni aniqlash asosida zarrachani qanday zarra ekanligini aniqlash mumkin bo'ladi.

#### IV. Ishning bajarish tartibi.

Berilgan rasmda Vilson kamerasiga tushayotgan zarralarnin tezliklari o'zaro teng ekanligi ma'lum.

Magnit maydonning induksiya vektorining yo'nalishi zarrachaning harakat yo'nalishiga tik ekanligi ham ma'lum. ( lekin rasmdan biz tomongami yoki teskari ekanligi berilmagan).

1. Qo'yilgan magnit maydoni induksiya vektorining yo'nalishi aniqlansin.

2. Nima uchun zarrani harakat traektoriyasini bir qismi aylana yoyi shaklida bo'lishini tushuntiririb yozing.

3. Nima uchun zarrachani harakat traektoriyasini turli qismlarida traektoriyaning egrilik radiyslari har xil bo'ladi.

4. Rasmdagi ikki treklar nima uchun har xil ekanligini tushuntirib yozing.

5. Rasmni ustiga ehtiyyotkorlik bilan shafot qog'ozni qo'ying va i-trek ustidan sekin qalqm bilan yuritib, chizib oling hamda rasmni o'ng chegersi ustidan ham chizib belgilab oling.

6. Traektoriyaning boshlang'ich qismi uchun egrilik radiusini aniqlang. Buning uchin traektoriyaning boshlang'ich qismidan ma'lum uzunlikdagi yoy belgilanib, bu yoya xorda ( yogni uchlarini tutashtiruvchi chiziq) o'tkaziladi.

7. Xordani o'rtasidan perpendicular o'tkazish yo'li bilan yogni aylanasi radiusi aniqlanadi.

8.  $q/m=v/Br$  – formula yordamida 1-chi chiziqa mos kattalik aniqlanadi.

9. Birinchi zarracha proton ekanligi ma'lum bo'lsa, ikkin treklar asosida aniqlangan  $q/m=v/Br_2$ - asosida ikkinchi zarracha qanday zarracha ekanligi aniqlansin.

#### MUNDARIJA

KIRISH .....	3
LABORATORIYA ISHI №1 .....	5
TEKIS TEZLANUVCHAN HARAKATNI O'RGANISH .....	5
LABORATORIYA ISHI №2 .....	8
MATEMATIK MAYATNIK YORDAMIDA ERKIN TUSHISH TEZLANISHNI ANIQLASH .....	8
LABORATORIYA ISHI №3 .....	10
BOYL-MARIOTT QONUNI O'RGANISH .....	10
LABORATORIYA ISHI №4 .....	12
GUK QONUNI ASOSIDA PRUJINA BIKIRLIGINI ANIQLASH .....	12
LABORATORIYA ISHI №5 .....	14
TOK MANBAINING ICHKI QARSHILIGINI ANIQLASH .....	14
III. Nazariy qism .....	14
LABORATORIYA ISHI №6 .....	16
TOK MANBAINING ELEKTIR YURUTUVCHI KUCHINI ANIQLASH .....	16
III. Nazariy qism .....	16
LABORATORIYA ISHI №7 .....	19
G'ALTAKNING INDUKTIVLIGINI ANIQLASH .....	19
LABORATORIYA ISHI №8 .....	22
TRANSFORMATORNING FOYDALI ISH KOEFFITSIENTINI (FIK) ANIQLASH .....	22
LABORATORIYA ISHI № 9 .....	25
LINZANING FOKUS MASOFASINI ANIQLASH .....	25
LABORATORIYA ISHI № 10 .....	27
DIFRAKSION PANJARA YORDAMIDA YORUG'LIK TO'LQIN UZUNLIGINI ANIQLASH .....	27
LABORATORIYA ISHI № 11 .....	30
FOTOELEMENTLI RELENING TUZILISHI VA ISHLASHINI O'RGANISH .....	30
LABORATORIYA ISHI №12 .....	34
FOTOELEMENT SEZGIRLIGINI ANIQLASH .....	34
Fotoelement sezgirligini aniqlash .....	36
LABORATORIYA ISHI №13 .....	39
TAYYOR FOTOSURATLAR BO'YICHA ZARYADLI ZARRACHALRNING TREK (IZ ) LARINE O'RGANISH .....	39
Foydalilanigan adabiyotlar .....	42

## *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. "Umumta'lim fizika fanida laboratoriya ishlari to'plami" Salohiddinov A, Zokirova S. Samarqand-2012 yil.
  2. "Fizika laboratoriya ishlari" I.Nurmatov, M Isroilov, M. Nishonova, A. Avlyoqulov. Toshkent. "O'qituvchi", 2004 yil.
  3. "Fizikadan praktikum" Tursunmetov K.A, Xudoyberganov A.M. Toshkent. "O'qituvchi", 2004 yil.
  4. O'lmasova M.H. Fizika (Optika,atom va yadro fizikasi )3- qism , Akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma Toshkent-2010
  5. Oplachko T. M., Tursunmetov K. A. Fizika 1-qism Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma Toshkent-2007.
  6. Kvant fizikasi. E.Rasulov, U.Berdiqulov. Toshkent, "Fan va texnologiya" 2006.
  7. Fizika. III qism. Akademik litsey va KHKlar uchun o'quv qo'llanma. No'monxo'jayev A.S. va boshqalar. Toshkent. T.: "Oqituvchi". 2001 .
  8. R.Begjonov. Atom yadrosi va zarralar fizikasi. T, 1996
  9. Oplachko T. M., Tursunmetov K. A. Fizika 2-qism Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma Toshkent-2007.

*Sodiqov N.O., Yarmahammadov U.Q., Burxonov B.N.*

## FIZIKA FANIDAN LABORATORIYA ISHLARI TO'PLAMI

### (Uslubiy qo'llanma)

$$\Gamma(p, q) = \frac{\Gamma(p)\Gamma(q)}{\Gamma(p+q)}$$

$$P(x) = \sum_{n=0}^{\infty} P(n) x^n = \int_0^{\infty} e^{-t} t^{x-1} dt$$

$$F(y) = \sum_{n=0}^{\infty} P(n) y^n = \int_0^{\infty} e^{-t} t^{y-1} dt$$

$$P(n) = \frac{\Gamma(p+q)}{\Gamma(p)\Gamma(q)} n^{p-1} (n+1)^{q-1}$$